

2025-yil 22-dekabr

Dual ta'lim - malakali o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlashning samarali modeli



Iqtisodiyot tarmoqlarini malakali o'rta bo'g'in kadrlari bilan ta'minlash, ishchi kasblarga bo'lgan yuqori talabni qondirish maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan dual ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda bugun D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filialida Angren texnologiya texnikumi o'qituvchilari va ta'lim ustalari uchun "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish, boshqarish hamda zamonaviy ta'lim metodlari va metodologiyasi" mavzusida 3 kunlik o'quv seminari boshlandi.



Tadbir doirasida ishtirokchilarga dual ta'lim tizimini samarali joriy etish va rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar taqdim etiladi.

Jumladan, Toshkent kimyo-texnologiya institutida dual ta'lim tizimini joriy etish va rivojlantirish tajribasi, ishchi kasblarga bo'lgan ehtiyoj va zamonaviy mehnat bozori talablari, shuningdek, kimyo texnologiyasi sohasida zamonaviy metod va tahlillardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi.



Shuningdek, Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti — “MISiS”ning Olmaliq shahridagi filiali bilan “Olmaliq KMK” AJ o'rtasidagi dual ta'lim tajribasi bo'yicha amaliy tahlillar o'tkaziladi.



Ushbu o'quv seminari ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, zamonaviy talablarga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.



source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/dual-ta-lim-malakali-o-rta-bo-g-in-kadrlar-tayyorlashning-sa>